

SUN'IY INTELLEKT VOSITASIDA TIL O'RGANISH: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Oymamatova Nilufar Shukurulla qizi

n.oymamatova@univ-silkroad.uz

“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros
xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: Sun’iy intellekt (SI) hozirgi kunda hayotimizning turli jabhalariga sezilarli darajada kirib kelmoqda, shu jumladan, ta’lim sohasiga ham. Sun’iy intellekt vositalari yordamida xorijiy tillarni o’rganish orqali o’quvchilarning faolligi, mustaqil o’zlashtirish darajasi va resurslarga kirish imkoniyati ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, bu texnologiyalar ortidan yuzaga kelayotgan ayrim muammolar- inson omilining kamayishi, axbarot xavfsizligi va texnologiyalarga haddan tashqari bog’lanib qolish kabi salbiy jihatlar ham ushbu maqolada ko’rib chiqiladi. Maqola Duolingo, ChatGPT, Elsa Speak kabi mashhur vositalar misolida SI asosidagi platformalarning til o’rganishdagi afzalliklari va kamchiliklarini muvozanatli baholab, ushbu texnologiyalar til ta’limi jarayoniga qanday ta’sir ko’rsatayotganini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt; til o’rganish; raqamli ta’lim vositalari; chatbotlar; onlayn ta’lim.

Abstract: Currently, artificial intelligence (AI) is significantly entering various aspects of our lives, including the field of education. By learning foreign languages using artificial intelligence tools, students’ activity, level of independent mastery, and access to resources are increasing. At the same time, some of the problems arising from these technologies- such as the reduction of the human factor, information security, and negative aspects such as excessive dependence on technology are also considered in this article. The article aims to provide a balanced assessment of the advantages and disadvantages of AI based platforms in language learning using popular tools such as

Duolingo, ChatGPT, Elsa Speak, and to determine how these technologies affect the language learning process.

Keywords: Artificial intelligence; language learning; digital learning tools; chatbots; online education.

Kirish

Til o'rganish inson faoliyatining eng murakkab va ko'p bosqichli jarayonlaridan biridir. So'nggi yillarda bu jarayonni yengillashtirish, interaktivlashtirish maqsadida turli raqamli vositalar yaratilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan platformalar, o'yinlashtirilgan ilovalar, chatbotlar va til o'rgatuvchi dasturlar til o'rganishga yangicha yondashuv olib kirmoqda. Ular o'quvchilarning til bilish darajalarini avtomatik tarzda aniqlab, shaxsiy mashg'ulotlar taklif etishi, real vaqtda o'quvchilar bilan muammolarni muhokama qilishi va og'zaki mashqlarni baholashi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, texnologiyaga ortiqcha o'rganib qolish, inson omilining kamayishi va texnologiyaga bo'lgan qaramlik kabi muammolar ham mavjud. Mazkur maqolada SI asosida ishlab chiqilgan dasturlarning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi hamda zamonaviy ta'limda ulardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar sun'iy intellektning ta'limdagi o'rniga e'tibor qaratmoqda. Masalan, Zawacki-Richter va hamkorlari (2019) o'z maqolalarida sun'iy intellekt texnologiyalari talabalarga individual yondashuv, tezkor baholash va o'qish jarayonini moslashtirish imkonini berishini ta'kidlagan. Biroq ular ham bu texnologiyalar o'qituvchining rolini to'liq almashtira olmasligini qayd etadi. Duolingo kabi mashhur ilovalar til o'rganishda motivatsiyani oshirishi bilan ajralib turadi. Vesselinov va Grego (2012) olib borgan tadqiqotda foydalanuvchilar so'z boyligi bo'yicha yaxshi natijalarga erishgani aniqlangan. Biroq boshqa izlanishlarda (Fadli & Latif, 2021; Tsai, 2022) Duolingo ko'proq lug'at va oddiy grammatik mashqlarni taklif qilishi, chuqurroq til ko'nikmalarini esa yetarli darajada rivojlantirmasligi aytiladi. ChatGPT masalasi ham keng muhokama qilinmoqda. Kasneci va boshq. (2023) bu

vositaning afzalligi sifatida talabaga individual fikr-mulohaza berishini va cheksiz suhbat muhiti yaratishini ko'rsatadi. Klimova (2024) esa ChatGPT'ning yozma va og'zaki ko'nikmalarni mustahkamlashdagi imkoniyatlarini qayd etadi. Shu bilan birga, Brookings (2023) ChatGPT ba'zida noto'g'ri javoblar berishi va noto'g'ri foydalanilganda akademik halollikka salbiy ta'sir qilishi mumkinligini eslatib o'tadi. Elsa Speak esa talaffuzni rivojlantirishga qaratilgan. Nguyen va Ha (2021) tadqiqotida bu ilovadan foydalangan talabalar talaffuzdagi aniqlik va ravonlikda sezilarli o'sishga erishgani ko'rsatilgan. Biroq Levis (2022) talaffuz vositalari ko'proq fonetik birliklarga urg'u berishini, lekin tabiiy suhbatdagi ritm va intonatsiyani yetarli darajada o'rgata olmasligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar sun'iy intellekt asosidagi ilovalar til o'rganishni samaraliroq qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularni o'qituvchining to'liq o'rnini bosuvchi emas, balki ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi qo'shimcha vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism

Sun'iy intellekt: Tushuncha, tarixi va ilmiy asoslari

Sun'iy intellekt atamasi ilk bor 1956-yilda Jon Makkarti tomonidan AQSHdagi "Dartmouth" kollejida tashkil etilgan seminarda ilmiy muomalaga kiritilgan. (Russell, Norvig, 2010, Zawacki-Richter va boshq., 2019 orqali). Sun'iy intellekt atamasi mutaxassislar uchun ham turlicha talqin qilinishi mumkin chunki bu soha doimiy ravishda rivojlanib, yangi yechimlar umumiy dastur yoki algoritm sifatida ham qabul qilinmoqda. Bostrom (Luckin va boshq., 2016, 6-bet) ta'kidlaganidek, "ko'plab ilg'or SI ishlanmalari kundalik ilovalarga singib ketgani uchun endi ular sun'iy intellekt deb emas, oddiy dastur yoki ilovalar deb ataladi. Bu esa sun'iy intellektni aniq bir doirada ta'riflashni qiyinlashtiradi Ayniqsa, sohaning antropologiya, biologiya, falsafa va boshqa yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqligi ham bu murakkablikni kuchaytiradi. Shunga qaramay ensiklopedik yondashuvda sun'iy intellektga quyidagicha umumiy ta'rif berilgan: **"Sun'iy intellekt (SI) – bu odatda inson aqli bilan bog'liq funksiyalar, masalan, o'rganish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishni bajara oladigan mashina yoki dastur tizimidir"** ("Artificial Intelligence", Wikipedia, 2025). Sun'iy

intellektning ta'limdagi qo'llanilishi so'nggi 30 yil ichida o'rganib kelinmoqda. 1997-yilda bu borada Sun'iy intellekt va ta'lim xalqaro jamiyati tashkil etilib, "Sun'iy intellekt va ta'lim xalqaro jurnali" nashr qilinmoqda. Shunga qaramay, o'qituvchilar SI ilovalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini endigina tadqiq etib boshlashgan. (Zawacki-Richter va boshq., 2019, 2-bet). Shunday qilib, sun'iy intellekt tushunchasi texnologik vosita sifatida qaralishidan tashqari, murakkab va ko'p qirrali ilmiy asoslarga ega. Unga bo'lgan turlicha yondashuvlar uni ta'lim sohasida, ayniqsa til o'rganishda samarali qo'llash zaruratini ko'rsatadi. **Sun'iy intellekt asosidagi til o'rganish vositalari: Tahlil va tavsif**

Til o'rganish sohasida sun'iy intellektga asoslangan vositalar tobora ko'payib bormoqda. An'anaviy uslublardan farqli ravishda, bugungi zamonaviy ilovalar foydalanuvchiga individual yondashuv, real vaqtli tahlil va o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu bo'limda Duolingo, ChatGPT va ELSA Speak kabi keng tarqalgan SI vositalarining funksional xususiyatlari, til o'rganishga ta'siri hamda o'quvchilar tajribasidagi o'rni tahlil qilinadi.

Duolingo (<https://www.duolingo.com>) — bu dunyodagi mashhur til o'rgatuvchi ilovalardan biri bo'lib, 300 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega. Duolingo o'yinga asoslangan ilova va u til o'rganishni oson, bepul hamda maroqli qilishga qaratilgan. Ingliz tilida so'zlashuvchi foydalanuvchilar 16ta tilni tanlash imkoniyatiga ega, fransuz tilidan tortib, esperantogacha. Boshqa tillarda so'zlashuvchilarda esa tanlov imkoniyatlari ancha kam. Shunga qaramay, Duolingo, Babbel va Busuu kabi o'xshash ilovalar bilan solishtirganda, mavjud farqlarga qaramasdan, yanada kengroq til tanlovi taklif qiladi. Quasi-esperimental tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Duolingo dan foydalangan guruhda verbal ishtirok, yozish va o'qish motivatsiyasi kabi ko'plab ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilandi. (Ouyang, Jiang & Liu, 2024). Shu orqali Duolingo shaxsiylashtirilgan mashg'ulotlar va adaptiv o'rganish algoritmlari yordamida o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Biroq boshqa tadqiqotlarda aniqlanishicha, Duolingo asosan so'z boyligi va oddiy grammatik mashqlarga e'tibor qaratadi, ammo nutq va til madaniyati bilan bog'liq ko'nikmalarga

kam e'tibor beradi. (Fadli & Latif, 2021). Shu bilan birga, uning o'yin elementlari bilan to'la interfeysi motivatsiya beruvchi sifatida ishlatilsa-da, bu tilni chuqur o'rganishdan ko'ra, sirtqi yondashuvni kuchaytiradi. (Ahmad, 2021; Tsai, 2022).

ChatGPT (<https://chat.openai.com>) bu matnni tushunish va uni yarata olishga qodir bo'lgan, suhbatga moslashadigan raqamli suhbatdoshdir. U foydalanuvchilarning savollariga javob berish, fikr almashish va yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yordamchi sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari ChatGPT sun'iy intellekt asosidagi virtual o'qituvchi bo'lib, foydalanuvchilarga chet tilini o'rganishda cheksiz mashq, tezkor javob va tilni tabiiy kontekstda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Avvalo ChatGPT ning afzalliklarini ko'rib chiqamiz: Birinchidan, ChatGPT foydalanuvchining yozgan matnini yoki savolini real vaqt rejimida tahlil qiladi va unga shaxsiylashtirilgan xulosa beradi. Bu, ayniqsa, chet tilini o'rganayotgan talabalarga grammatik xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyatini beradi (Kasneci va boshq., 2023). Ikkinchidan, ChatGPT cheksiz muloqot muhiti yaratib, o'quvchilarga turli mavzular bo'yicha suhbat qurish, formal va informal uslublarni mashq qilish imkonini beradi. Bu esa tilni **tabiiy kontekstda qo'llash** malakasini oshiradi (Klimova, 2024). Uchinchidan, ChatGPT o'qituvchilar uchun ham yordamchi vosita bo'lib, dars rejasi, test savollari yoki lug'at mashqlarini yaratishda samarali resurs hisoblanadi. Bu resurslarni avtomatik shaklda ishlab chiqish o'qituvchilarga vaqtni tejash va individual yondashuvni kengaytirishga yordam beradi (Li, 2024). Shu bilan birga, ChatGPT'dan foydalanishda ayrim cheklovlar ham mavjud. Eng muhim muammolardan biri — ba'zan **noto'g'ri yoki noaniq javoblar** berishi. Bu til o'rganuvchilarda noto'g'ri bilim shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin (Kasneci va boshq., 2023). Bundan tashqari, ChatGPT o'qituvchining pedagogik nazoratini to'liq o'rnini bosa olmaydi. U o'quvchilarning ijodiy fikrlashini yoki chuqur metakognitiv yondashuvini baholash imkoniyatiga ega emas. Shu sababli u dars jarayonida **asosiy emas, balki yordamchi vosita** sifatida qo'llanishi lozim (Brookings, 2023). ChatGPT dan foydalanishning eng katta kamchiliklaridan biri bu foydalanuvchining sun'iy intellektga nisbatan ortiqcha bog'lanib qolishidir. Ko'pgina til o'rganuvchilar undan topshiriqlarini bajarishda yordamchi sifatida emas,

vazifalarini to'liq bajarib beradigan vosita sifatida qaraydi. Sun'iy intellektga nisbatan qaramlik mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tanqidiy tafakkurni zaiflashtirib qo'yadi, chunki inson qaror qabul qilishni sun'iy intellektga topshirib qo'ygan bo'ladi. Qaramlik insonda "O'zim hal qila olmayman, faqat SI yordam bera oladi." degan psixologik tushunchani shakllantirishi mumkin. Bu esa o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi.

Elsa Speak (<https://www.elsaspeak.com>) ingliz tilidagi talaffuzni o'rgatishga ixtisoslashgan sun'iy intellektga asoslangan mobil ilova bo'lib, foydalanuvchi nutqini ovoz orqali tahlil qiladi va fonetik xatolarni aniqlaydi. Ilova nutqni fonema darajasida baholab, talaffuzni yaxshilash uchun aniq tavsiyalar beradi. Elsa Speak rasmiy saytida qayd etilishicha, ilova foydalanuvchi nutqini real vaqt rejimida tahlil qiladi va xatolar ustida individual mashqlarni taqdim etadi (Elsa Speak, n.d.). Birinchidan, Elsa Speak foydalanuvchi talaffuzini fonetik birliklar bo'yicha tahlil qilib, qaysi tovush noto'g'ri aytilganini ko'rsatadi. Bu o'quvchiga o'zining aniq xatolarini ko'rib chiqish va ularni tuzatish imkonini beradi (Nguyen & Ha, 2021). Ikkinchidan, ilova foydalanuvchining zaif tomonlarini aniqlab, mashqlarni shunga moslashtiradi. Shu orqali o'quvchi eng ko'p qiynaladigan tovushlarni ko'proq mashq qiladi. Uchinchidan, Elsa Speak foydalanuvchilarga o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi. Real vaqt natijalari va rivojlanish ko'rsatkichlari mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, Elsa Speakning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, ilova asosan alohida so'zlar va qisqa gaplarni talaffuz qilishni mashq qildiradi, ammo tabiiy suhbatdagi ritm va intonatsiyani to'liq o'rgata olmaydi (Levis, 2022). Ikkinchidan, ilova odatda standart Amerika inglizchasini o'rgatadi, boshqa lahja va talaffuz variantlarini yetarli darajada qamrab olmaydi. Uchinchidan, Elsa Speak'ning ko'plab imkoniyatlari pullik obunaga bog'langan. Bu esa barcha foydalanuvchilar uchun ham qulay emas. Xulosa qilib aytganda, Elsa Speak talaffuzni yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. Biroq uning imkoniyatlari ko'proq fonetik xatolarni tuzatishga qaratilgan, shuning uchun u tabiiy suhbat va interaktiv muloqotni to'liq almashtira olmaydi. Demak, Elsa Speakni

til o'rganishda **asosiy emas, balki qo'shimcha yordamchi vosita** sifatida ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Xulosalar

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi vositalar til o'rganish jarayonida an'anaviy uslublarni samarali qo'llab-quvvatlaydi. Duolingo o'yinlashtirilgan mashqlar orqali o'quvchilarni rag'batlantiradi, ammo ko'proq lug'at va sodda grammatik bilimlarni rivojlantiradi. ChatGPT interaktiv muloqot va yozma mashqlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq noto'g'ri javob berishi va foydalanuvchini haddan tashqari texnologiyaga bog'lab qo'yishi mumkin. Elsa Speak esa talaffuzni mukammallashtirishda samarali, lekin tabiiy suhbat va intonatsiyani to'liq aks ettira olmaydi. Umuman olganda, ushbu ilovalar til o'rganuvchilarning mustaqil o'qishini qo'llab-quvvatlaydi, ularga cheksiz mashq qilish imkonini beradi va darslarni individual ehtiyojlarga moslashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ularni o'qituvchi faoliyatini to'liq almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki yordamchi resurs sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin:

- O'qituvchilar sun'iy intellekt vositalaridan darslarni boyituvchi qo'shimcha resurs sifatida foydalanishlari lozim.
- Talabalar ilovalar orqali o'z bilimlarini mustaqil mustahkamlash bilan birga, ularni tanqidiy yondashuv asosida ishlatishlari zarur.
- Kelgusida sun'iy intellekt asosidagi vositalarning O'zbekiston ta'lim tizimidagi qo'llanishini tajribaviy o'rganish, ularning samaradorligini mahalliy sharoitda baholash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad, I. (2021). The impact of gamified language learning applications on students' motivation. *International Journal of Education Research*, 9(3), 77–85.
2. Brookings Institution. (2023). *The risks and benefits of ChatGPT in education*. <https://www.brookings.edu>
3. Duolingo. (n.d.). *Duolingo – The world's best way to learn a language*. <https://www.duolingo.com>
4. ELSA Speak. (n.d.). *English Language Speech Assistant*. <https://www.elsaspeak.com>
5. Fadli, A., & Latif, A. (2021). The effectiveness of Duolingo in English vocabulary learning. *Journal of English Language Teaching and Learning*, 12(1), 45–53.
6. Kasneci, E., Sessler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., & Fischer, F. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. *Learning and Individual Differences*, 103, 102274.
7. Klimova, B. (2024). AI-powered chatbots and their role in developing writing and speaking skills. *Education and Information Technologies*, 29(3), 2115–2128.
8. Levis, J. (2022). Pronunciation teaching and technology: Current directions. *Journal of Second Language Pronunciation*, 8(1), 1–14.
9. Li, J. (2024). The use of ChatGPT in language teaching: Potential and limitations. *Journal of Computer Assisted Learning*, 40(2), 287–301.
10. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence unleashed: An argument for AI in education*. Pearson Education.

11. Nguyen, T., & Ha, P. (2021). Improving English pronunciation through mobile-assisted language learning: The case of ELSA Speak. *CALL-EJ*, 22(1), 146–160.
12. OpenAI. (n.d.). *ChatGPT*. <https://chat.openai.com>
13. Ouyang, A., Jiang, Y., & Liu, M. (2024). Effects of Duolingo on students' vocabulary and motivation: A quasi-experimental study. *Journal of Language Teaching and Research*, 15(1), 56–67.
14. Russell, S., & Norvig, P. (2010). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. 3rd ed. Pearson Education.
15. Tsai, Y. S. (2022). Gamification in language learning apps: Benefits and drawbacks. *Language Learning & Technology*, 26(2), 123–139.
16. Vesselinov, R., & Grego, J. (2012). Duolingo effectiveness study. *City University of New York (CUNY)*.
17. Wikipedia. (2025). *Artificial Intelligence*. https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial_intelligence
18. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 16(39), 1–27.